

QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 2-son)



IJTIMOIIY FANLAR
SOCIAL STUDIES

MADANIY DIPLOMATIYANING VUJUDGA KELISH TARIXI

Dovidxonov Mahmudxon Muhriddinxon o‘g‘li
O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti
I bosqich tayanch doktoranti
mahmudxondovidxonov1@gmail.com

Annotatsiya: Uzoq tarixga ega bo‘lgan xalq diplomatiyasi tushunchasi adabiyotlarga hozirgi ma’nosida ilk bor 1965-yilda kiritilgan. Bunga qadar, xalq diplomatiyasi tushunchasini ifodalash uchun turli boshqa so‘zlar ishlatilgan. 2000-yillardan keying davrda ommaviy axborot vositalarida, ilmiy doiralarda madaniy diplomatiya atamasi qo‘llanila boshlandi. Madaniy diplomatiya xalq diplomatiyasida qo‘llanilgan usul va metodlar deyarli bir xil edi. Shuning uchun bir tomon madaniy diplomatiya xalq diplomatiyasining bir bo‘g‘ini, tarmog‘i degan fikrda bo‘lsa, boshqa tomon xalq diplomatiyasidan ajralib chiqqan, mustaqil soha, degan fikrda. Madaniy diplomatiya ham xalq diplomatiyasi ham diplomatiyaning yondosh, yordamchi tarmoqlari sifatidagi faoliyati nuqtai nazaridan tashqi siyosatning muhim instrumenti, davlatning yumshoq kuchi demakdir.

Kalit so‘zlar: diplomatiya, madaniy diplomatiya, xalq diplomatiyasi, madaniyat, xalqaro aloqalar.

ИСТОРИЯ ВОЗНИКНОВЕНИЯ КУЛЬТУРНОЙ ДИПЛОМАТИИ

Аннотация: Понятие публичной дипломатии, имеющее долгую историю, было впервые введено в литературу в его современном понимании в 1965 году. До этого для выражения концепции публичной дипломатии использовались и другие слова. После 2000-х годов термин «культурная дипломатия» стал использоваться в средствах массовой информации и академических кругах. Методы и приемы, используемые в культурной дипломатии, были почти такими же, как и в публичной дипломатии. Поэтому одна сторона считает, что культурная дипломатия является звеном, отраслью публичной дипломатии, а другая сторона считает, что это самостоятельная область, отделенная от публичной дипломатии. И культурная дипломатия, и публичная дипломатия являются важными инструментами внешней политики, мягкой силы государства с точки зрения их деятельности как смежных и вспомогательных отраслей дипломатии.

Ключевые слова: дипломатия, культурная дипломатия, народная дипломатия, культура, международные отношения.

THE HISTORY OF THE EMERGENCE OF CULTURAL DIPLOMACY

Annotatsiya: The concept of public diplomacy, which has a long history, was introduced to the literature in its current sense for the first time in 1965. Until then, various other words were used to express the concept of public diplomacy. After the 2000s, the term cultural diplomacy began to be used in mass media and academic circles. The methods and techniques used in cultural diplomacy were almost the same as in public diplomacy. Therefore, one side believes that cultural diplomacy is a link, a branch of public diplomacy, while the other side believes that it is an independent field separated from public diplomacy. Both cultural diplomacy and public diplomacy are important instruments of foreign policy, soft power of the state, from the point of view of their activity as adjacent and auxiliary branches of diplomacy.

Keywords: diplomacy, cultural diplomacy, public diplomacy, culture, international relations.

KIRISH. Diplomatiya tushunchasi Yevropada XV asrdan boshlab qo‘llanila boshlandi. Bu davrlarda diplomatiya xalqaro munosabatlarning kichik tarmog‘i sifatida qaraldi. Davlatlar o‘rtasidagi ziddiyatlarni harbiy kuchdan boshqa turdagi muqobil vositalar orqali yechim topish mumkinligi, asta-sekin diplomatiya xalqaro munosabatlarning asosiy quroliga aylanganligi, davlatlar xalqaro tizimdagi o‘z mavqeini saqlab qolish va o‘z mavjudligini davom ettirish uchun diplomatiyadan foydalanishga to‘g‘ri kelishi zaruratga aylandi¹². Shu tariqa diplomatiya tashqi siyosatning muhim elementiga aylandi. Birinchi jahon urushigacha bo‘lgan davrda diplomatiya yashirin xususiyat kasb etgan bo‘lsa, birinchi jahon urushidan keyingi davrda ochiq diplomatiya qo‘llanila boshlandi.

Diplomatiyaning klassik namunasi bu muayyan davlatlarning o‘zaro munosabatlari majmui sifatida qaraydigan bo‘lsak, xalq diplomatiyasi, madaniy diplomatiya, iqtisodiy diplomatiya kabi atamalarga ham duch kelamiz. Mazkur atamalar faoliyat turiga qarab turli kontekstlarda turlicha qo‘llanilishi mumkin. Bu atamalarni yaxshiroq tushunish uchun avvalo diplomatiya tushunchasi nimani anglatishini ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq bo‘lardi. Chunki diplomatiya ijtimoiy fanlarda turlicha ta’riflanadi.

Diplomatiya – davlatning tashqi xalqaro siyosatini amalga oshirish, chet mamlakatlar bilan aloqa qilish sohasidagi faoliyati; biror maqsadga erishish yo‘lida ustalik bilan olib borilgan muomala¹³. Shuningdek, diplomatiya – davlatning tashqi siyosat sohasidagi vazifalarni amalga oshirish, mamlakatning chet eldagi huquq va manfaatlarini himoya qilish sohasidagi rasmiy faoliyat¹⁴.

¹² İskit Temel. Diplomasi, Tarihi, Teorisi, Kurumları ve Uygulaması. İstanbul: İstanbul Bilgi Üniversitesi Yayınları, 2018. s.4. <https://ets.anadolu.edu.tr/storage/nfs/ULI407U/ebook/ULI407U-12V1S1-8-0-1-SV1-ebook.pdf>

¹³ O‘zbek tilining izohli lug‘ati. I tom. Moskva. “Rus tili” nashriyoti. 1978. 228-bet.

¹⁴ Diplomatiya. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Diplomatiya> Olingan sana: 04.07.2024.

Kissinjer esa diplomatiyaga real hayotda real voqeliklar orasidagi tanlov, do‘st va dushmani ajrata olish¹⁵, kabi oddiy ta’rif beradi. Bundan tashqari, Xalqaro munosabatlarni tartibga soluvchi shartnomalar majmui, Xorijiy davlatda va xalqaro yig‘ilishlarda o‘z davlatini vakillik qilish ishi va san’ati, bu sohada faoliyat ko‘rsatayotgan shaxsning burchi va kasbi, qiyin, murakkab, ziddiyatli uchrashuvlar va muzokaralar paytida ko‘rsatilgan mahorat va topqirlik¹⁶ ham deyish mumkin. Oksford ingliz lug‘atida berilgan ta’rifga ko‘ra: “diplomatiya – bu turli mamlakatlar o‘rtasidagi munosabatlarni boshqarish faoliyati; munosabatlarni boshqarish qobiliyatidir¹⁷”, degan ma’nolarda uchratish mumkin. Shuningdek, “Diplomatiya – mustaqil davlatlar hukumatlari orasida rasmiy aloqalar olib borish uchun aql va odobni qo‘llash, qisqaroq aytganda, tinch vositalar yordamida davlatlar o‘rtasida ish olib borishdir”¹⁸.

Diplomatiya xalqaro siyosat va tashqi siyosatdan farqli o‘laroq, ularni olib borishning yo‘li va usuli sifatida o‘ziga maydon ochadi. Shu nuqtai nazardan, diplomatiya davlatning o‘ziga bevosita yoki bilvosita tegishli bo‘lgan masalalar bo‘yicha fikr va qarashlarini boshqa davlatlarning qaror qabul qiluvchilariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri yetkazish jarayonidir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA. Globallashuv, aloqa va axborot almashinuvinining jadal rivojlanishi va boshqa davlatlar jamoatchiligining qo‘llab-quvvatloviga erishish istagi natijasida diplomatiya tushunchasining sohasi va ko‘lami kengayib, xalq diplomatiyasi kabi yangi tadqiqot sohasi paydo bo‘ldi. Ingliz tilida “public diplomacy”, fransuz tilida “la diplomatie publique” tarzida ifoda qilinadigan bu atama o‘zbekchada “xalq diplomatiyasi” deb ataladi.

Xalq diplomatiyasi tushunchasini ilk bor 1965-yilda Tufts Universiteti Fletcher huquq va diplomatiya maktabi dekani Edmund Gullion tomonidan qo‘llanilgan. Universitetning Edvard Murrou Xalq diplomatiyasi markazining dastlabki risolasida xalq diplomatiyasi axborot va g‘oyalarning transmilliy oqimi sifatida quyidagicha ta’riflangan: “Xalq diplomatiyasi tashqi siyosatni tartibga solish va amalga oshirishda jamoatchilik munosabatining ta’siri bilan shug‘ullanadi. U xalqaro munosabatlarning an’anaviy diplomatiyadan tashqari o‘lchovlarini, boshqa davlatlar hukumatlari tomonidan jamoatchilik fikrini shakllantirishni, maxsus guruhlar va davlat manfaatlarining o‘zaro ta’sirini va ularning bir-biri bilan munosabatlarini, tashqi ishlar bayonotlari va ularning siyosatga, aloqalarga, diplomatlar, xorijiy vakillar o‘rtasidagi va madaniyatlararo muloqot jarayoni ta’sirini o‘z ichiga oladi”¹⁹.

Xans Tunch esa: “Hukumatning o‘z millatining g‘oyalari, ideallari, institutlari va madaniyatini, shuningdek, milliy maqsadlari va joriy siyosatini xorijiy xalqlar tomonidan

¹⁵ Kissinger Henry. Diplomacy. USA, New York, The Easton Press, 1994. P.7. http://lib.ysu.am/disciplines_bk/1f6300e67784b164a9857efd25ed325b.pdf

¹⁶ Diplomasi, Türk Dil Kurumu Sözlüğü, <https://sozluk.gov.tr/>, Olingan sana: 04.07.2024.

¹⁷ Oxford Dictionary of English. Diplomacy. <https://www.oxfordlearnersdictionaries.com/definition/english/diplomacy> Olingan sana: 10.07.2024.

¹⁸ Сатоу Эрнест. Руководство по дипломатической практике. – М.: ИМО, 1961. С. 11. <https://imobook.ru/preview/978-5-7133-1613-6.pdf>

¹⁹ The Edward Murrow Center of Public Diplomacy. What is Public Diplomacy?. <http://fletcher.tufts.edu/murrow/public-diplomacy.html> Olingan sana: 06.07. 2024.

tushunishga qaratilgan muloqot jarayoni”²⁰, degan fikrda. Anna Tiedeman xalq diplomatiyasini millatning xulq-atvoriga ta’sir qilish va xalqaro munosabatlarda qulay muhit yaratish maqsadida chet el jamoatchiligi bilan muloqot qilish harakati sifatida belgilaydi. Bu harakat hukumat va xorijiy xalqlar o‘rtasidagi ikki tomonlama aloqani qamrab oladi. Samarali xalq diplomatiyasi madaniyat, qadriyatlar va e’tiqodni o‘z ichiga olgan uzoq muddatli maqsadlarni o‘z ichiga oladi²¹. Rughning ta’kidlashicha, xalq diplomatiyasi – bu mamlakatning milliy manfaatlarini qo‘llab-quvvatlash uchun xorijiy jamoatchilikni xabardor qilish, jalb qilish va ularga ta’sir qilish jarayoni²².

Snou xalq diplomatiyasini quyidagi jadvalda tushuntirishga harakat qiladi:

Xalq (Public)	Diplomatiya (Diplomacy)
Hukumatdan tashqari	Hukumat
Amaliyotchilar	Tashqi siyosat mutaxassislar
Norasmiy	Rasmiy, ehtiyotkor, ilmiy
Faol jamoatchilik	Nofaol jamoatchilik yoki tomoshabin
Dialogik, almashinuv, ikki tomonlama simmetrik aloqa	Bir tomonlama ma’lumot beruch, ikki tomonlama assimetrik aloqa
Xatti-harakatning o‘zgarishi	Xatti-harakatda o‘zgarish yo‘q

Manba: Nancy Snow²³.

TAHLILLAR VA NATIJALAR An’anaviy xalq diplomatiyasi hukumatlarning jahon jamoatchiligi bilan bilvosita muloqot qilish, jahon jamoatchiligini xabardor qilish, ta’sir qilish, milliy maqsadlarga va tashqi siyosatga kiritishga qaratilgan sa’y-harakatlarni o‘z ichiga olganligi sababli xalq diplomatiyasi faoliyatiga hukumat homiylik qiladigan faoliyat sifatida belgilaydiganlar ham bor. Osgud va Eterij buni “homiy (hukumat) erishmoqchi bo‘lgan geosiyosiy maqsadlarga erishish uchun jamoatchilik fikrini ishlab chiqarish”²⁴ deb ta’rifladilar. Ularning fikricha, ba’zi jihatlarda xalq diplomatiyasi millatning tashqi siyosatiga xizmat qiluvchi targ‘ibot sifatida ham ta’riflanadi.

An’anaviy diplomatiya va xalq diplomatiyasi o‘rtasidagi tub farq shundan iboratki, birinchisi davlatlar vakillari yoki xalqaro ishtirokchilar o‘rtasidagi munosabatlarga taalluqli bo‘lsa, ikkinchisi keng jamoatchilikka, aniqrog‘i, xorijiy jamiyatlardagi norasmiy guruhlar,

²⁰ Hans N. Tuch. Communicating with the World: U.S. Public Diplomacy Overseas. 2., New York, St Martin’s Press 1993, P. 3. <https://archive.org/details/communicatingwit00tuch>

²¹ Tiedeman Anna. Branding America An Examination of U.S. Public Diplomacy Efforts. Tufts University, Master of Arts in Law and Diplomacy Thesis. USA, Massachusetts, 2005, pp. 6-11. <https://dl.tufts.edu/concern/pdfs/0z7097493>

²² William A. Rugh. Introduction. Engaging the Arabs and Islamic Worlds Through Public Diplomacy. William Rugh. (Ed.) Washington, The Public Diplomacy Council, 2004, P.1. <https://www.proquest.com/docview/1446955038?sourcetype=Scholarly%20Journals>

²³ Nancy Snow. Rethinking Public Diplomacy. Handbook of Public Diplomacy. Nancy Snow and Philip M. Taylor. (Eds.) New York, Routledge, 2009, P. 8. https://www.academia.edu/43775903/Public_Diplomacy

²⁴ Kenneth Osgood ve Brian C. Etheridge. The New International History. United States and Public Diplomacy: New Directions in Cultural and International History. Kenneth Osgood ve Brian C. Etheridge. (Eds.) Leiden, Martinus Nijhoff Publishers, 2010, PP. 12-13. <https://citeseerx.ist.psu.edu/document?repid=rep1&type=pdf&doi=a347cac814366c8885dd71c0fca44bb344256278>

tashkilotlar va shaxslarga tegishli. An’anaviy diplomatiya amaliyotchilari o‘z hukumatlarining xalqaro munosabatlardagi strategik maqsadlarini amalga oshirish uchun xorijiy hukumatlar vakillari bilan bog‘lansa, xalq diplomatiyasi xuddi shu strategik maqsadlar uchun xorijiy jamoatchilikning maqsadli qatlamlari bilan aloqa o‘rnatiladi.

Xalq diplomatiyasi qo‘llaniladigan sohalar ham mustaqil foydalanilganda o‘z maqsadlariga xizmat qiladi. Masalan, ko‘pgina mamlakatlarda madaniy diplomatiyasi xalq diplomatiyasidan mustaqil ravishda qo‘llaniladigan sohadir. Xalq diplomatiyasining qo‘llanilish sohalarida biz madaniy diplomatiya, fuqaro diplomatiyasi, e’tiqod diplomatiyasi kabilarga duch kelamiz. Sovuq urush poyoniga yetib, kommunistik lager qulagandan so‘ng, dunyo bir qutubli dunyodan ko‘p qutbli dunyoga aylangach, XXI asr boshlaridan dastlab xabarlarda, ro‘znomalarda, keyinchalik ilmiy doiralarda xalq diplomatiyasi o‘rniga madaniy diplomatiyasi atamasi qo‘llanila boshlandi. Biroq, madaniy diplomatiyasi mavzusi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar madaniy diplomatiyasi xalq diplomatiyasining bir tarmog‘i sifatida ifodalaganini ko‘rish mumkin.

Xalq diplomatiyasi turli xalqaro munosabatlar tadqiqotchilari tomonidan turlicha ta’riflanadi va uning texnikasi yoki uslubi haqida ham turlicha fikrlar mavjud. Xalq diplomatiyasining uslub va texniklari to‘g‘ri tasniflanganligi, ilmiy adabiyotda keng qabul qilinganligi va qamrovi tufayli tadqiqotchi Nikolas Kullning tasnifi namuna sifatida olinadi. Kull xalq diplomatiyasining quyidagi beshta muhim texnikaga ajratadi. Bular: tinglash, mudofaa, madaniy diplomatiya, almashinuv diplomatiyasi va xalqaro nashriyot²⁵. Kullning tasnifiga qaraydigan bo‘lsak, madaniy diplomatiya xalq diplomatiyasining bir tarmog‘i degan fikr yana o‘rtaga chiqadi.

Nayning fikricha, xalq diplomatiyasi uch jihatga ega. Uchalasi ham muhim, uzoq muddatli madaniy aloqalarni o‘z ichiga oladi. Birinchi yo‘nalish – kundalik inqirozlarni yengishga tayyorlik. Ikkinchi yo‘nalish – bu siyosiy kampaniya yoki reklama kampaniyasi kabi oddiy mavzulardan iborat strategik kommunikatsiyalar. Uchinchi yo‘nalishi – ta’lim stipendiyalari, almashinuv dasturlari, stajirovkalar, seminarlar, konferensiyalar va ommaviy axborot vositalariga kirish orqali vaqt o‘tishi bilan boshqa mamlakatlardagi muhim shaxslar bilan uzoq muddatli munosabatlarni tizimlashtirish, shuningdek, madaniy diplomatiyani ham o‘z ichiga oladi²⁶.

Kullning madaniy diplomatiyasini xalq diplomatiyasi texnikasi/tarmog‘i qatoriga kiritishiga qo‘shimcha ravishda, Nayning madaniyatni yumshoq kuch manbalaridan biri sifatida tushuntirishi, madaniyat – davlatning, millatning, xalqning mavjudligida naqadar muhimligidan dalolat beradi. Bugungi kunda madaniy diplomatiya nafaqat xalq diplomatiyasining bir

²⁵ Cull Nicholas. Public Diplomacy: Lessons from the Past. Los Angeles, Figueroa Press 2009, p.24.
<http://kamudiplomasisi.org/pdf/kitaplar/PDPerspectivesLessons.pdf>

²⁶ Nye Joseph. Soft Power, The means to Success in World Politics. Public Affairs. USA, New York. 2004, p.108.
https://www.belfercenter.org/sites/default/files/legacy/files/joe_nye_wielding_soft_power.pdf

elementi, tarmog‘i, balki o‘z-o‘zidan muhim diplomatik amaliyot, shuningdek, akademik tadqiqot sohasiga ham aylandi.

“Madaniy diplomatiya mamlakatlar o‘rtasidagi munosabatlarni mustahkamlash, ijtimoiy-madaniy hamkorlikni kuchaytirish, milliy manfaatlarni ilgari surish uchun g‘oyalar, qadriyatlar, an‘analar, madaniyat yoki o‘ziga xoslikning barcha jihatlarini almashinuviga asoslangan harakatlar jarayoni sifatida ifoda etiladi²⁷”, deya ta’rif beradi Madaniy Diplomatiyasi Instituti (Institute for Cultural Diplomacy) doktori, Ruminiyaning 1996-2000-yillardagi prezidenti Emil Konstantinesku. Madaniy diplomatiyaning maqsadi shaxslarga turli madaniyatlarga kirishga imkon berish, shu tariqa o‘zaro hamkorlikni ta’minlash deb talqin qilish mumkin.

Tarixiy jihatdan madaniy diplomatiyasi ko‘pincha san‘at, ta’lim va g‘oyalarni, shuningdek, sog‘liqni saqlash, ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanish kabi madaniyat sohasidan tashqari faoliyatni o‘z ichiga olgan xalq diplomatiyasining kichik, ammo muhim tarmog‘idir²⁸, deyish mumkin. Milton Kammings madaniy diplomatiyani “millatlar va xalqlar o‘rtasida o‘zaro tushunishni rivojlantirish maqsadida g‘oyalar, ma’lumotlar, san‘at va madaniyatning boshqa jihatlarini almashish”²⁹, deb ta’riflaydi. Kammingsning bergan ta’rifi ilmiy adabiyotlarda va tadqiqotlarda eng ko‘p iqtibos keltirilgan ta’rif sifatida ham ko‘rish mumkin.

Madaniy diplomatiya bu – harbiy vositalar yordamida qo‘llaniladigan qattiq kuchdan farqli o‘laroq madaniy kanal orqali qadriyatlar va g‘oyalarni yetkazish imkoniyatini beradigan yumshoq kuchning eng yaxshi namunasidir³⁰. Berilgan ta’riflarni umumlashtirib shuni aytish mumkinki, madaniy diplomatiya davlatning o‘z siyosati, maqsadi, ideallarini turli davlatlar va madaniyatlarga yetkazish, tanitish jarayonida kommunikativ faoliyatning yaxlitligini qamrab oladigan, ko‘p qirrali va interaktiv jarayondir.

Madaniy diplomatiya tarixini turli sabablarga ko‘ra tushuntirishda turli murakkabliklar va tarixiy qarama-qarshiliklar mavjud, xususan, uning umume’tirof etilgan ta’rifining yo‘qligi va uning akademik fan sifatida kech paydo bo‘lishi shular jumlasidandir. Madaniy o‘zaro ta’sir insoniyat sivilizatsiyasining boshidan beri mavjud bo‘lgan haqiqat bo‘lsa-da, madaniy diplomatiya nisbatan yangi tushunchadir. O‘tmishda sayohatchilar, tadqiqotchilar, missionerlar, savdogarlar va rassomlar kabi ko‘plab odamlar o‘z tillarida gapirmaydigan, turli madaniy qadriyatlarga ega, turli kiyim kiyadigan yoki boshqa xudolarga ishonadigan odamlar bilan muloqot qilish orqali madaniy o‘zaro ta’sir manbalari bo‘lib kelgan.

Muntazam ravishda sodir bo‘lgan madaniy aloqalar XIX asrda strategik ahamiyatga ega bo‘ldi. Dastlabki davrlarda hukmdorlar saroylari o‘rtasida cheklangan tarzda sodir bo‘lgan

²⁷ The Cultural Diplomacy Dictionary. (Editör: Dr. Kishore Chakraborty), Academy For Cultural Diplomacy, https://www.culturaldiplomacy.org/academy/index.php?en_about p.30-31, Olingan sana. 07.07.2024.

²⁸ Bill Ivey. Cultural Diplomacy and The National Interest: In Search of a 21st-Century Perspective. Arts Industries Policy Forum The Curb Center at Vanderbilt, 2002, p.1. https://www.academia.edu/10780289/Cultural_Diplomacy_and_The_National_Interest_In_Search_of_a_21st_Century_Perspective_The_Curb_Center_for_Art_Enterprise_and_Public_Policy_at_Vanderbilt

²⁹ Cummings Milton. Cultural Diplomacy and the United States Government: A.Survey. Center for arts and culture. 2003. P.1. <https://www.americansforthearts.org/sites/default/files/MCCpaper.pdf>

³⁰ Nye Joseph. The Paradox of American Power, Oxford University Press, Oxford 2002, p.8. https://lisd.princeton.edu/sites/g/files/toruqf506/files/Nye_Lecture.pdf

madaniy o‘zaro ta’sir yoki almashuv faoliyati 1815-yilda bo‘lib o‘tgan Vena kongressi bilan kengroq ommaga tarqalish imkoniga ega bo‘ldi. XIX asrda davlatchilikning zamonaviy tizimi jadal rivojlanishi madaniyat diplomatiyaning yangi davlatlar yaratish, muloqot qilish va global maydonda milliy o‘ziga xosliklarini baham ko‘rish vositasi sifatidagi ahamiyatini oshirdi³¹.

Nayning aytishicha, mamlakat madaniyati va mafkurasi jozibador bo‘lsa, boshqalar ham unga ergashadi³². “Xalqaro muhitni madaniy manbalar va madaniy o‘zgarishlarga yordam berish bilan boshqarish, madaniyat namunalarini eksport qilish orqali mamlakat siyosatini osonlashtirish madaniyat diplomatiyasi sifatida ta’riflanadi”³³. Madaniy diplomatiya mamlakat hukumati bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, diplomatik ishlar jamlanmasini osonlashtiradigan ijobiy imijni rivojlantirishga intiladigan tashqi siyosat maqsadlariga erishadi³⁴.

Madaniy diplomatiya nisbatan yangi konsepsiyasi hisoblansada, amaliyotlari juda qadimgi davrlarga borib taqaladi. Iskandariyadagi buyuk yunon kutubxonasining qurilishi, Rim imperatorlari qo‘shni do‘st mamlakatlar knyazlari uchun Rimda ta’lim bergani, Vizantiya imperatorlari pravoslav ruhoniylariga slavyan o‘lkalarida homiylik qilgani madaniy diplomatiyasining antik davrlardagi namunasidir³⁵. Arndt ta’biri bilan aytganda, madaniy diplomatiya madaniyatli bo‘lishni niyat qilgan insoniyat uchun bronza davridan boshlab tamoyilga aylangan. Katta guruhlar o‘rtasida hamkorlik qilish imkonini beruvchi og‘zaki nutqning rivojlanishi bilan parallel ravishda milloddan avvalgi 3000-yillardan boshlab diplomatiya ham rivojlandi. Podshohlarning vakillari o‘sha davr diplomatlari bo‘lib, xabar yetkazish bilan birga, boshqa jamiyatlardan ham biror narsa o‘rganib qaytadilar. Bu davrda diplomatiya davlatlararo emas, balki madaniyatlararo munosabatlarni ifoda etardi. Madaniy jihatdan rivojlangan jamiyatlar o‘zlarining an’analarni kodlash orqali nizolarni kamaytiradigan va hamkorlikni oshiradigan qoidalarini yaratdilar. Shafqatsiz kuch hali ham sivilizatsiyani yo‘q qilishi mumkin bo‘lsa-da, diplomatiya madaniyatlarni bog‘lash orqali uni yaxshilashga harakat qildi³⁶.

XULOSA. Madaniyat va diplomatiya o‘rtasidagi munosabatlar 1910-yillarda boshlangan deb taxmin qilinadi. Fransiya shu yillardan fransuz tili, adabiyoti va madaniyatini yoyishga harakat qilayotgan muassasalarni qo‘llab-quvvatladi. 1910-yilda “Chet ellardagi maktablar va vaqflar byurosi” tuzilib, “Quai d’Orsay” qoshida bu sohada faoliyat yurituvchi muassasalar

³¹ Grincheva Natalia. The past and future of cultural diplomacy. 06.03.2023. pp.172-191 <https://www.tandfonline.com/doi/full/10.1080/10286632.2023.2183949>

³² Nye Joseph. Public Diplomacy and Soft Power. The Annals of the Academy of Political and Social Science. No: 616, 2008, pp. 94-109. https://www.researchgate.net/publication/249666741_Public_Diplomacy_and_Soft_Power

³³ Cull Nicholas. Public Diplomacy: Taxonomies and Histories. The Annals of the Academy of Political and Social Science. No:616, 2008, pp.31-54. <https://study.sagepub.com/sites/default/files/The%20ANNALS%20of%20the%20American%20Academy%20of%20Political%20and%20Social%20Science-2008-Cull-31-54.pdf>

³⁴ Harry Chartrand. International Cultural Affaris: A 14 Country Survey. Journal of Arts Management, Law and Society22, No:2., 1992, pp.134-154. <http://www.compilerpress.ca/Cultural%20Economics/Works/ICR%201992.htm>

³⁵ Cull Nicholas. Public Diplomacy: Lessons from the Past. Los Angeles, Figueroa Press 2009, p.19. <http://kamudiplomasisi.org/pdf/kitaplar/PDPerspectivesLessons.pdf>

³⁶ Richard Arndt. Cultural diplomacy. USA, California, Public diplomacy magazine. 2005. p.1. <https://static1.squarespace.com/static/5be3439285ede1f05a46d4fe/t/5be34faf1ae6cfce29d51ef7/1541623732917/CulturalDiplomacy.pdf>

birlashtirildi³⁷. Madaniy diplomatiya sohalar orasida mamlakatlarning, ayniqsa, til o‘rgatish faoliyati, almashuv dasturlari, madaniyat va san’at sohasida o‘zini namoyon qiladigan faoliyatlar, festivallar, madaniyat kunlari, ommaviy axborot vositalaridan foydalanish kabilar birinchi o‘rinda turgani ko‘rinib turibdi.

Til xalq madaniyatining eng muhim belgilaridan biridir. Chet tilini o‘rganish/o‘rgatish boshqa madaniyatlarni o‘rganish kontekstidagi muhim vaziyatdir. Agar millat chet elliklarga o‘z tilini o‘rgatsa, u chet elliklarga o‘sha xalqning adabiyoti, filmlari, nashrlari, ommaviy axborot vositalari va ular olib boradigan xabarlardan foydalanish imkonini beradi. Masalan, “British Council”ni olaylik. Buyuk Britaniyaning boshqa mamlakatlar bilan madaniyat, san’at va ta’lim sohasidagi aloqalariga hissa qo‘shadi. Xuddi shunday ingliz tilining dunyoda eng ommabop til bo‘lishiga, Angliyaga xalq diplomatiyasi nuqtai nazaridan foyda keltirdi, til orqali madaniy diplomatiyani amalga oshirdi.

Bundan tashqari, Gyote instituti ko‘plab mamlakatlarda nemis tili va madaniyatini, Aliyans Franchays (Allianca Français) fransuz tili va madaniyatini, Servantes instituti (Cervantes institute) ispaniya tili va madaniyatini, Xitoy esa Konfutsiy instituti (Confucius Institute) orqali xitoy tili, madaniyati va ideologiyasini, Yunus Emre Instituti (Yunus Emre Enstitüsü) turk tilini o‘rgatish orqali turk madaniyatini targ‘ib qilish bilan shug‘ullanib, kunimizdagi muhim madaniy diplomatiyani amalga oshiruvchi tashkilotlari sifatida ta’riflash mumkin.

Keyinchalik bu harakatlar xalqaro darajada yoyilib, ikkinchi jahon urushidan keyin ta’lim, fan va madaniyat sohalarida xalqaro hamkorlik orqali tinchlik o‘rnatishni maqsad qilgan YuNESKO tashkil etildi va mamlakatlarda tashqi aloqalarni olib borishda madaniy diplomatiyadan foydalanish g‘oyasi paydo bo‘ldi. Shunday qilib, YuNESKOga a‘zo davlatlar o‘zlari tayinlagan missiya rahbarlari orqali o‘zlarining madaniy faoliyatlarini boshqa xalqlarga o‘rgatish, tanitishni va hamkorlikni rivojlantirishni maqsad qilganlar.

Xalq diplomatiyasi konsepsiyasi doirasida madaniy diplomatiya fenomeni bo‘yicha Kall³⁸, Kitsou³⁹, Lenkzovski⁴⁰, Szondi⁴¹ kabi yevropalik olimlar, shu bilan birga Demir⁴², Yilmaz va Kilicho‘g‘li⁴³ kabi turkiyalik olimlar salmoqli tadqiqotlar olib borganlar.

³⁷ İskit Temel. Diplomasi, Tarihi, Teorisi, Kurumları ve Uygulaması. İstanbul: İstanbul Bilgi Üniversitesi Yayınları, 2018. s.121. <https://ets.anadolu.edu.tr/storage/nfs/ULI407U/ebook/ULI407U-12V1S1-8-0-1-SV1-ebook.pdf>

³⁸ Cull Nicholas. Public Diplomacy: Lessons From The Past, Los Angeles: USC Center on Public Diplomacy, Figueroa Press, 2009. <http://kamudiplomasisi.org/pdf/kitaplar/PDPerspectivesLessons.pdf>

³⁹ Kitsou Sofia. The Power of Culture in Diplomacy: The Case of U.S. Cultural Diplomacy in France and Germany. The Journal of Public Diplomacy, January 2011. <https://surface.syr.edu/cgi/viewcontent.cgi?article=1015&context=exchange>

⁴⁰ Lenczowski John. Cultural Diplomacy, Political Influence & Integrated Strategy. (Editör: J. Michael Waller) Strategic Influence Public Diplomacy, Counterpropaganda And Political Warfare, Crossbow Press, 2009. https://www.academia.edu/31885074/Strategic_Influence_Public_Diplomacy_Counterpropaganda_And_Political_Warfare

⁴¹ Szondi György. Central and Eastern European Public Diplomacy: A Transitional Perspective on National Reputation Management. (Editör: Nancy Snow, Philip M. Taylor), Handbook of Public Diplomacy, New York, Routledge, 2009. https://www.academia.edu/322384/Routledge_Handbook_of_Public_Diplomacy

⁴² Demir Vedat. Kamu Diplomasisi ve Yumuşak Güç, Beta Yayınları, İstanbul 2012. <https://www.kitapyurdu.com/kitap/kamu-diplomasisi-ve-yumusak-guc/287418.html>

⁴³ Yılmaz Ayhan Nuri & Kılıçoğlu Gökmen. Türkiye’nin Orta Asya’daki Yumuşak Gücü ve Kamu Diplomasisi Uygulamalarının Analizi, Türk Dünyası Araştırmaları, Cilt: 119, Sayı:235, 2018, 141-184. <https://dergipark.org.tr/tr/pub/tda/issue/59374/852064>

Xulosa o‘rnida aytish kerakki, madaniy diplomatiya konsepsiyasi O‘zbekiston uchun nazariy jihatdan yangi konsepsiya bo‘lsada, uning barcha turdagi vositalaridan davlatlararo madaniy hamkorlik yo‘nalishida keng foydalanib kelinmoqda. Shu bilan birga, madaniy diplomatiya yo‘nalishidagi tadqiqotlarni ko‘paytirish zarur. Chunki, o‘zbek olimlari tomonidan xalq diplomatiyasi mavzusida muayyan tadqiqotlar olib borilib, ilmiy ishlar yozilgan bo‘lsada, madaniy diplomatiya mavzusida birorta tadqiqot mavjud emas.

Madaniy diplomatiya globallashtirilgan dunyoda madaniyatlararo integratsiyani ta‘minlash, madaniy turfa xillikni saqlab qolish, o‘zbek tili, madaniyatini xalqaro maydonda keng targ‘ib qilish, xorijdagi o‘zbeklarning milliy madaniy ehtiyojlarini samarali qondirish uchun O‘zbekiston ham madaniy diplomatiyadan faol foydalanishi lozim deb hisoblaymiz. Chunki, madaniy diplomatiyani rivojlantirish orqali O‘zbekistonning xalqaro maydondagi siyosiy imijini ham yaxshilash mumkinligini rivojlangan davlatlarning madaniy diplomatiyasi tajribasida ko‘rishimiz mumkin.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Cull Nicholas. Public Diplomacy: Lessons From The Past, Los Angeles: USC Center on Public Diplomacy, Figueroa Press, 2009.
2. Szondi György. Central and Eastern European Public Diplomacy: A Transitional Perspective on National Reputation Management. (Editör: Nancy Snow, Philip M. Taylor), Handbook of Public Diplomacy, New York, Routledge, 2009.
3. Lenczowski John. Cultural Diplomacy, Political Influence & Integrated Strategy. (Editör: J. Michael Waller) Strategic Influence Public Diplomacy, Counterpropaganda And Political Warfare, Crossbow Press, 2009.
4. Demir Vedat. Kamu Diplomasisi ve Yumuşak Güç, Beta Yayınları, İstanbul 2012.
5. Yılmaz Ayhan Nuri & Kılıçoğlu Gökmen. Türkiye’nin Orta Asya’daki Yumuşak Gücü ve Kamu Diplomasisi Uygulamalarının Analizi, Türk Dünyası Araştırmaları, Cilt: 119, Sayı:235, 2018.
6. Richard Ardnt. Cultural diplomacy. USA, California, Public diplomacy magazine. 2005.
7. İskit Temel. Diplomasi, Tarihi, Teorisi, Kurumları ve Uygulaması. İstanbul: İstanbul Bilgi Üniversitesi Yayınları, 2018.
8. Grincheva Natalia. The past and future of cultural diplomacy. 06.03.2023.
9. Nye Joseph. Public Diplomacy and Soft Power. The Annals of the Academy of Political and Social Science. No: 616, 2008.
10. Harry Chartrand. International Cultural Affairs: A 14 Country Survey. Journal of Arts Management, Law and Society 22, No:2., 1992.
11. Cull Nicholas. Public Diplomacy: Taxonomies and Histories. The Annals of the Academy of Political and Social Science. No:616, 2008.
12. Bill Ivey. Cultural Diplomacy and The National Interest: In Search of a 21st-Century Perspective. Arts Industries Policy Forum The Curb Center at Vanderbilt, 2002.

13. Cummings Milton. Cultural Diplomacy and the United States Government: A.Survey. Center for arts and culture. 2003.
14. Nye Joseph. Soft Power, The means to Success in World Politics. Public Affairs. USA, New York. 2004.
15. Nye Joseph. Public Diplomacy and Soft Power. The Annals of the Academy of Political and Social Science. No: 616, 2008.
16. Tiedeman Anna. Branding America An Examination of U.S. Public Diplomacy Efforts. Tufts University, Master of Arts in Law and Diplomacy Thesis. USA, Massachusetts, 2005.
17. William A. Rugh. Introduction. Engaging the Arabs and Islamic Worlds Through Public Diplomacy. William Rugh. (Ed.) Washington, The Public Diplomacy Council, 2004.
18. Nancy Snow. Rethinking Public Diplomacy. Handbook of Public Diplomacy. Nancy Snow and Philip M. Taylor. (Eds.) New York, Routledge, 2009.
19. Kenneth Osgood ve Brian C. Etheridge. The New International History. United States and Public Diplomacy: New Directions in Cultural and International History. Kenneth Osgood ve Brian C. Etheridge. (Eds.) Leiden, Martinus Nijhoff Publishers, 2010.
20. Hans N. Tuch. Communicating with the World: U.S. Public Diplomacy Overseas. 2., New York, St Martin’s Press 1993.
21. Kissinger Henry. Diplomacy. USA, New York, The Easton Press, 1994.
22. Сатоу Эрнест. Руководство по дипломатической практике. – М.: ИМО, 1961.